

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Talaba: TISU 2-kurs 2/24 - guruh talabasi

Choriyeva Sabrina Bahrom qizi

Ilmiy rahbar: Norqobilova Rayxona

Annotatsiya: Ushbu mavzu boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yoritadi. Unda bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik-pedagogik nazariyalar (masalan, Piaget va Vygotskiyning kognitiv rivojlanish tushunchalari) va tafakkur turlarini (tanqidiy, ijodiy, mantiqiy) shakllantirish usullari ko'rib chiqiladi. Mavzu ta'limning maqsadi sifatida o'quvchilarning muammolarni hal etish, tahlil qilish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, interfaol darslar, o'yinlar va loyihaviy ishlar kabi amaliy metodlarni taklif etadi. Natijada, boshlang'ich ta'limda tafakkur rivoji orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va hayotiy ko'nikmalarini oshirishning ahamiyati ta'kidlanadi. Ushbu ish pedagoglar uchun nazariy asos va amaliy tavsiyalarni taqdim etib, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, pedagogika, tafakkur rivojlanishi, mustaqil fikrlash, mantiqiy fikrlash, aqliy salohiyat, aqliy faoliyat, o'quvchi faoliyati, ta'lim metodlari, psixologik xususiyatlar.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim — o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash jarayoni va bilimga bo'lgan qiziqishi shakllana boshlaydigan eng muhim bosqichi hisoblanadi.. Bu davrda bola atrof-muhitni kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali bilimlarni o'zlashtiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim pedagogikasining asosiy vazifasi — o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish va o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undashdan iboratdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, kuzatuvchanlik va muammoni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Asosiy qisim

Ta'lim tarbiya jarayonida yuzaki rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Yosh-avlodning ta'lim-tarbiya masalasi, hamisha davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham alohida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida pedagog kadrlarning ta'lim jarayonidagi faoliyatining yanada murakkablashuvi,

mas'uliyati va vazifalarining ortishiga olib keldi. Bugungi kunda ta'lim tizimida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib tayyorlash yuksak bilim, salohiyat va mehnatni talab qilmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun o'quvchilarning aqliy salohiyati va tafakkurini shakllantirishga doir metodlarni ishlab chiqish, ularning ma'naviy-axloqiy darajalariga bo'lgan talabni oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan yetarli darajada ta'minlash zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur rivojlanishi ularning yoshiga xos xususiyatlari, jumladan, o'zgaruvchan, amaliy-harakatli va keyinchalik mavhum-mantiqiy tafakkurga o'tish jarayoni bilan bog'liq. Bu jarayonni rag'batlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar va o'yinlardan foydalanish muhimdir. "Tafakkur" so'zi arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida keng foydalaniladigan «fikrlash» va «aqliy bilish» so'zlarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Psixolog Ergash G'oziyev tafakkur tushunchasiga quyidagicha ta'rif berar ekan: "Tafakkur atrof muhitdagi voqeyelikni nutq yordami bilan bavo-sita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik proses, sosial sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir" degan. Tafakkur aqliy faoliyat, ongli xatti-harakatlar majmui bo'lib, tevarak atrof, ijtimoiy muhit hamda borliqni bilish asosi, inson faoliyatini oqilona, samarali tashkil qilishning muhim sharti hisoblanadi. E.Z. Usmonova tafakkurning eng muhim tavsifi – bu tafakkur va nutqning eng yaqin hamda o'zaro bog'liqligidir, deb ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikricha: «u yoki bu fikr qanchalik o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq va yaxshi ifodalanadi deyдилar. Boshlang'ich maktabda mantiqiy fikrlash texnikasi turli xil xususiyatlar va belgilarning chiqarilishi va og'zaki belgisi bilan bog'liq bo'lgan taqqoslash sifatida shakllanadi, ular asossiz xususiyatlar va birlashmalardan foydalanish bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning ijodiy tafakkur yo'li ularning individual rivojlanishini hisobga olishni taqozo qilib, bu o'z navbatida, ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, mayllaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tabaqalashtirishni talab qiladi. Mazkur jarayonda o'qituvchi o'zining kasbiy mahorati doirasida o'quvchilarga nisbatan individual yondashuvni tatbiq eta olishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limdagi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda o'qituvchining roli katta hisoblandi o'qituvchi bolalarga (Tõgri savol berish, faol ishtirokini rag'batlantirish, mustaqil fikr yuritish uchun sharoit yaratish, o'quvchi fikrini qadrlash, xato qilishdan qo'rqqmaslikka õrgatadi).

Boshlang'ich ta'limda õquvchilarning tafakkurini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali natija beradi bularga (Aqliy hujum, klaster, insert,) bular õquvchilarni fikrlashga undaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga xos psixologik xususiyatlari — tafakkur, xotira, e'tibor, hissiyot va motivatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek,

o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida o'qituvchining roli katadir, dars jarayonida psixologik muhitni to'g'ri shakllantirishning ta'siri, hamda ta'lim samaradorligini oshirishda individual va interfaol metodlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda bolalar tafakkurining ko'rgazmali-harakatli bosqichdan mantiqiy tahlil darajasiga o'tish jarayoni, ixtiyorsiz e'tibor va hissiy beqarorlik kabi yosh xususiyatlarining o'qitish uslublariga ta'siri ko'rsatib beriladi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari ta'lim jarayonining asosiy elementlaridan biri sifatida, bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mavzu orqali aniqlanishicha, Piaget va Vygotski kabi nazariyotchilarning g'oyalari asosida qurilgan pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va o'yinli faoliyatlar yordamida o'quvchilarning tanqidiy, ijodiy va mantiqiy tafakkurini shakllantirish mumkin. Natijada, boshlang'ich maktabda tafakkur rivoji nafaqat bilimlarni egallashga, balki hayotiy muammolarni hal etish, mustaqil fikrlash va jamiyatga moslashish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Pedagoglar ushbu asoslarni amaliyotda qo'llash orqali ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarib, kelajak avlodlarning yorqin rivojlanishiga hissa qo'shishi zarur.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". "O'zbekiston". Toshkent-2022.
2. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston, 1990. – B. 4.
3. G'oziev E. "Tafakkur psixologiyasi". Toshknet. "O'qituvchi". 1990 y
4. G'ulomov A., Yo'ldoshev J. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Xamidov H., Xoliqov A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Yo'ldosheva M., O'razaliyeva D. Boshlang'ich ta'limda fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ziyonet, 2021.
7. Mavlonova R., Hasanboyeva O., Rahmonqulova N. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Davletshin M. G. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
9. Abduqodirov A. A. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2020.